

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI

Xudoyberdieva Toshbuvining

5141600–Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun «**Boshlang'ich ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ustida ishlash metodikasi**» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

prof. Mamatov A.

JIZZAX -2011

R E J A:

KIRISH

I BOB. YOZMA ISH TURLARI. XATOLAR TASNIFI. BAHOHASH

MEZONLARI

1.1. Yozma ish turlari

1.2. Yozma ishlardagi xatolar tasnifi va belgilanishi

1.3. Baholash mezonlari

II BOB. ONA TILI DARSLARINING TURLARI VA QURILISHI ...

2.1. Orfografik mashqlar

2.2. Ona tili darslarining turlari va qurilishi

2.3. Mavzuga doir test materiallaridan namunalar

XULOSALAR.....

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda «Ta'lim To'g'risida»gi qonun xamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinganligiga xam 9-yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Bu orada mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimini isloh etish, ularni bir-biridan ajratmagan xolda bir mutanosiblikda olib borish, yosh avlodning nafaqat intellektual rivojlanishini, balki jamiyat uchun har tamonlama foydali, yuksak axloqli va raqobatbardosh kadr etib tarbiyalashga oid juda ko'p dasturlar, metodik ishlanmalarga kishi diqqatini o'zining yangiligi, ijobiy va muhimligi bilan band etib, ta'lim islohotining mazmun mohiyati takomillashib bormoqda.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «**Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari**» asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini

ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o'zining «**Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch**» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi².

Ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida eng birinchi navbatda shaxs kamoliga urg'u bsrilgan. Shaxs tarbiyasi, ayniqsa, o'qituvchi va o'quvchi orasida ilk insoniy munosabat, «Ustoz shogirdlik» an'analari kelajagimiz tarixidagi ko'pgina maktablardan ma'lum. Bugungi pedagogik jarayon mazkur masalaga kengroq qarash, insonparvarlik, bag'rikenglikni taqozo etmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2005-2009 yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risidagi qarorning hayotga tadbiiq qilinishi yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston,2009. – 6.7.

² I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

modernizatsiya qilingan o`quv dasturlari asosida darsliklar va o`quv-metodik qo`llanmalarni yaratish, nashrga tayyorlash, chop etish va maktablarni ular bilan ta'minlashning yagona kompleks tizimi yaratildi.

MBI bosqichida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- yozma ish turlari,
- yozma ishdagi xatolar tasnifi va belgilanishi,
- baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari: Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllantirish mustahkamlash borasida fikr-mulohazalarni yuritishi, shu sohada qo`llangan dastlabki ijodiy tajribalarimizni baholi qudrat bayon etish muhokamaga qo`yilgan ushbu kamtarin malakaviy bitiruv shimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o`z oldimizga qo`ydik:

- yozma ish turlarini tavsiflash,
- yozma ishdagi xatolar tasnifi va belgilanishini yoritib berish,
- baholash mezonlarini ishlab chiqish va hakoza.

Malakaviy bitiruv ishining manbasi: Mazkur ishning manbasi-fakultetimiz mutaxassisligi mos keladigan va shu sohada ishlashimiz mumkin

boʻlgan bosqich-boshlangʻich sinf ona tili darslarida diktant turlarini oʻtkazish yoʻli bilan oʻquvchilar bilimlarini mustahkamlash.

MBIning predmeti: Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili taʼlimida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllantirish jarayonining mazmuni.

MBI metodlari: tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini oʻrganish, nazariy jihatdan tahlil etish; Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili taʼlimida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishining mavjud holatini oʻrganish; pedagogik kuzatuv; suhbat; anketa soʻrovi; pedagogik tajriba; matematik-statistik metod.

MBIning metodologik asosi: sharq mutafakkirlarining taʼlimotlari, Oʻzbekiston Respublikasi uzluksiz taʼlim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-meʼyoriy hujjatlar, xususan, Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan qabul qilingan meʼyoriy hujjatlar, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan gʻoyalardan iborat.

MBIning ilmiy yangiliklari: Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishi muammosi pedagogik yo`nalishda mustaqil tadqiqot sifatida tadqiq etildi; Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishiga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni asoslandi; mazkur faoliyat samaradorligini ta'minlovchi shakl, metod va vositalar tizimi tavsiya etildi; Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi; Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishiga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar berildi.

MBIning nazariy ahamiyati: Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishiga yo`naltirilgan faoliyat mazmunining ishlab chiqilganligi; «kasbiy faoliyat», «munosabat», «kasbiy-madaniy munosabat» va «bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisida kasbiy-madaniy munosabatni shakllantirish» kabi tushunchalarning sharhlanganligi;

Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishiga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarning asoslanganligi; Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishiga yo`naltirilgan faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

MBIning amaliy ahamiyati: tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar oliy ta'lim muassasalari faoliyatini mazmunan boyitadi, ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtiradi, shuningdek, Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyatida ona tili ta'limida diktant va uning turlari ustida ishlash malakalarini shakllanishiga xizmat qiladi.

MBIning tarkibiy tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish kirish, asosiy mazmuni yorituvchi ikkita bob, oltita paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

I BOB. YOZMA ISH TURLARI. XATOLAR TASNIFI.

BAHOHASH MEZONLARI

1.1. Yozma ish turlari

Yozma nutq, insoniyat uchun eng mahsuldor faoliyat turlaridan biri hisoblanadi, O`quvchilarni yozma nutqqa o`rgatish uning salmog`ini oshirish yo`li bilan asta-sekin murakkablashib borishi kerak.

Respublikamizda Umumiy-o`rta ta`lim maktablari uchun DTS ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo`lgan talablar ham ortmoqda. Maktabda yozma ishlar qaysi maqsadda o`tkazilishiga qarab ikki turga bo`linadi:

- a) ta`limiy yozma ishlar:
- b) tekshiruv (na`zorat) yozma ishlari.

O`quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda diktantning roli kattadir. Diktant lotincha "dicto" so`zidan olingan bo`lib, "aytib bermoq", "aytib turmoq", "so`zlamoq, gapirmoq" degan ma`nolarni bildiradi.

Diktantning samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadning aniqligi hamda metodning izchilligiga ko`ra belgilanadi. Diktant hozirgi o`zbek adabiy tili me`yorlari talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan sinf o`quvchilari uchun tushunarli bo`lishi va bog`lanishli main asosida tuzilishi zarur.

TA'LIMIY DIKTANTLAR

Biror imlo qoidasi bilan bog'liq bo'lgan fonetik, so'z yasalishi va morfologik mavzuni mustahkamlash, o'quvchi ongiga singdirish va uni yozuvda qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Ta'limiy diktantlar sinfda o'qituvchi va o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkaziladi. Ko'zlangan maqsadga ko'ra ta'limiy diktantlar 3 turga bo'linadi:

- 1) orfografik xarakterdagi ta'limiy diktantlar;
- 2) nazariy bilimlarni mustahkamlaydigan ta'limiy diktantlar;
- 3) nutq o'stirish xarakteridagi ta'limiy diktantlar.

Ta'limiy diktantlarning mazmuniga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

- ta'kidiy diktant
- izohli diktant
- lug'at diktant
- saylanma diktant
- erkin diktant
- yoddan yozuv (o'z diktant)
- ijodiy diktant

Diktant orqali o'quvchilarning u yoki bu grammatik mavzularni qay darajada o'zlashtirganlarini aniqlash ham mumkin. Sunday diktant nazorat

diktanti bo'lib u yirik mavzular o'rganib bo'lingach, o'quv yilining har bir choragida o'tkazilishi mumkin

TA`KIDIY DIKTANT

Ta'kidiy diktant imlo va tinish belgilariga old ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan: so'roq yoki undov belgilarining qo'llanish o'rinlarini eslatish uchun o'qituvchi quyidagicha savollar berishi mumkin:

- Qaysi vaqtlarda so'roq belgisi ishlatiladi?
- Undov belgisi-chi?
- Qaysi vaqtlarda bu belgilar tushirib qoldiriladi?

Savollarga berilgan javoblarni o'qituvchi umumlashtiradi.

Mustahkamlanishi lozim bo'lgan orfogramma shu tariqa eslatiladi:

— Binafsha terayotganingizni hech kim ko'rmadimi?

Bir o'quvchi bu gap so'roq gap ekanligini isbotlaydi, chunki, gap oxirida so'roq belgisi qo'llanilmoqda hamda ohang yordamida so'roq ma'nosi ifodalanmoqda. Yoki bo'lmasa, Paxtakor mehnatini har qancha ta'riflasang arziydi! His-hayajon munosabatini anglatmoqda.

Bu xildagi gaplarni o'qituvchi doskaga yozdiradi. So'ngra o'quvchiga o'qitib, tinish belgilarini, xatolarini tuzatish orqali o'quvchilar faoliyatini yanada

oshiradi: Hurmatli hamyurtlar! Tashkent haqiqati" gazetasiga obuna bo'lishni unutmanglar!

O'tilgan qoidaga oid so'zlar, ularning yozilishi so'raladi. Diktantning bu turi uchun ko'proq bog'lanishli matnlar tanlangani ma'qul.

Ta'kidiy diktantni og'zaki shaklda o'tkazsa ham bo'ladi. O'qituvchi matnni adabiy tilning talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda sekin o'qiydi. O'quvchilar mustahkam-lanayotgan qoidaga mos so'z yoki so'z birikmalarini ajratadiladi.

Ta'kidiy diktantni 4 — 5- sinflarda haftada bir marta, 6- sinfda 10 kunda bir marta, 7 — 8-sinflarda oyda 2 marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

IZOHLI DIKTANT

O'qituvchi matnni o'qib beradi, o'quvchilar esa yozadilar. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini o'zigajalb qiladi. So'ngra qoidaga muvofiq adabiy til me'yoiaai asosida matnni o'qiydi. O'quvchilar yozishni davom ettiradilar. Masalan: O'zbekiston mustaqil respublika bo'ldi. Bu so'zlar qanday yoziladi? Eslang. Bu yerda O'zbekiston — atoqli ot. Shuning uchun u bosh harf bilan yoziladi. Hamda xat boshida keladi. O'quvchilar yozgan matnini qoidaga asoslanib yozgan-yozmaganlarini tekshirib chiqadilar.

ERKIN DIKTANT

Erkin diktant bayonga yaqin turadi. O'quvchilar matn mazmunini saqlagan holda, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini boshqa so'z yoki so'z birikmalari bilan al-mashtirishi mumkin.

Matnni o'qituvchi bir marta o'qib beradi. Bii; o'quvchi mazmunini gapirib beradi. Keyin o'qituvchi birinchi xat boshidan o'qiydi. Oxuvchilar eslab qolganlarini yozadilar. Gaplardagi so'zlar soni aslida ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ammo xat boshidagi mazmun mustahkamlana-yotgan orfogramma saqlanishi lozim.

Diktant tamom bo'lgandan keyin o'quvchilar o'z yozganlarini imlo qoidalari bo'yicha tekshirib chiqadilar. Tekshirish vaqtida matn imlosi bilan mazmuniga ko'proq e'tibor berish kerak. Keyin o'qituvchi daftarlarni yig'ib oladi. Ba'zi vaqtlarda ayrim o'quvchilar qiyin so'zlarni yozmay, tashlab ketadilar. Buning oldini olish lozim. Bunday odatga ko'nikkan o'quvchining savodxonligi har doim past bo'ladi.

Erkin diktant o'quvchilarga o'z fikrini bayon qila olish malakasini hosil qih'shda ko'mak beradi.

SAYLANMA DIKTANT

Saylanma diktantning asosiy vazifasi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini va matnni qay darajada tushungan-tushunmaganligini anglash, egalik qo'shimchalari, so'z birikmalari, kelishiklar, qo'shma va juft otlarning qo'llanilishi, ayrim so'zlarning qanday yozilishini bilish uchun o'tkaziladi.

Masalan: Uchqo'rg'onliklar paxta ekishni tamom qilishdi. Biyiing onju-istaklarimiz. Bekobod shahrida zavod qurish edi.

O'quvchilar orzu-istak juft so'zlarini hamda Uchqo 'r-g'on, Bekobod qo'shma soxzlarini daftarlariga yozadilar. Ish ana shu usulda davom etadi.

Main takror o'qib berilganidan keyin mazmuni tushungan-tushunmaganligi aniqlanadi. Ba'zi hollarda saylanma diktant qoxshimcha topshiriqlar bilan murakkablashtirilishi mumkin.

Saylanma diktantning qo'llanilishi ba'zan kelishik qoxhimchalari, egalik qoxhimchalari, ba'zan negizlanii aniqlab olinishiga yordamberadi. Masalan: Bog'ga, tog'ga, stanokka, Muborakka, terakka kabi so'zlarning o'zak, negizining yoki qo'shimchasining ajratib yozilishi o' quvchilarda ongli uquvni takomillashtiradi.

Saylanma diktant o'quvchilarning ma'lum bir so'zni yoki iborani tanlashda gapga diqqatini jalb qiladi. Saylanma diktant uchun darsning 15 minuti yetadi.

IJODIY DIKTANT

Ijodiy diktant o'quvchini mustaqillikka o'rgatadi, faolligini oshiradi.

O'qilon, oshqozon, tog'olcha, gultojixo'roz, Sirdaryo, Yangiyo'l, Oqqo'rg'on, Mingbuloq, Beshariq, otboqar, beshiktervatar, qoraqurt, kungaboqar, laylakqor, oybolta, umumxalq, baqaterak, badantarbiya, arpapoya va boshqalar. Oxquvchilar bu so'zlar yordamida gap tuzishlari, kichik-kichik hikoya yozishlari mumkin.

Ayrim vaqtlarda a va o unlilarining imlosini mustah-kamlash uchun oxqituvchi obod, tamom, tomosha, futbol, mavsum, qora, sovuq, anor kabi so'zlarni yozadi, shu so'zlar yordamida „odob“ haqida insho yozishni topshiradi. Uni uyga vazifa qilib berish ham mumkin. Bu so'zlarning telaffuziga ham e'tibor berilishi lozim.

Matnni kengaytirish maqsadida boshqa so'z turkum-lariga, masalan, stfatga old: Harnimadan or-nomus baland. Nodon bilan sirdosh bo 'Ima. Odam — temirdan qattiq, guldan nozik kabi gaplarni doskaga yozadi. O'quvchilar gapdagi sifatlarni aniqlab yozadilar va shunday yo'nalishda gaplar tuzish uyga vazifa qilib beriladi.

LUG'AT DIKTANT

Bunday diktantlar o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish va rivojlantirishda o'zining ixchamligi va ko'p vaqt talab qilmasligi bilan boshqa

diktantlardan farq qiladi. Lug'at diktant uchun 10 minut vaqt yetaiidir. Lug'at diktantning asosiy maqsadi imlosi qiyin so'zlarni yozishga o'rgatishdan iborat.

Lug'at diktantdagi so'zlar yordamida so'z birikmalari, gaplar tuzdiriladi. Masalan: tashakkur, diqqat, albatta, assalom, awal, ekkan, sodda, modda, rassom, achchiq, zarra, professor, izzat, grammatika kabi qo'sh undoshli so'zlar yordamida gap tuzish hamda kichik-kichik insholar yozish mumkin.

GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

Bunda matn aytib turish yo'li bilan diktant yozdiriladi. So'ng matnning biror qismi yoki butun matn yuzasidan tahlil qilish vazifasi — topshiriq beriladi. Masalan, matndagi otlarni (yoki boshqa so'z turkumlarini) topib, tagiga tegishli chizing, ustiga so'rog'ini yozing. Yoki matndagi oxirgi gapni (yoki 5-gapni) gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling. Yozilishi bilan aytilishi mos kelmaydigan so'zlarning tagiga chizing.

Har qanday grammatik topshiriq o'quvchining nazariy bilimni mustahkamlash, aniqlash bilan birga savodxonligini ta'riflash, nutq boyligini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Ta'limiy diktantlar o'rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5—10 daqiqasi davomida va ba'zan to'liq darsda o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash xiraqsadida o'tkaziladi.

Talimiy diktant o'tkazilish va bajarilish usullariga ko'ra bir necha turga ajratiladi: ta'kidiy diktant, o'z diktant, yoddan yozuv diktanti, saylanma diktant, erkin diktant, rasmlil diktant, izoMi diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant. Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktanti yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tekshiruv diktant asosan har chorak oxirida, ba'zan bilimlar o'rganilgandan so'ng o'tkazilib, unga 1 soat ajratiladi.

IZOHLI YOZUV

O'qituvchining asosiy vazifalaridan bin matnni adabiy tilda talaffuz qilishni ta'minlashdir.

O'quvchi, odatda o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum bir so'zning yozilishini izohlaydi. So'zning yozilishi bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qilish, qoidani tadbiiq etish bilan izohlanadi. Masalan: Kitob — bilim manbai. Kitob: ki-tob. 2bo'g'in. 1-bo'g'inda k, i tovushlari bor, ularni k, i harflari bilan ifodalash mumkin. 2- bo'g'inda t, o, b tovushlari bor, oxirgi b tovushi p deb talaffuz. qilinadi. Lekin b harfi bilan yoziladi. Uni tekshirib ko 'rish ham mumkin. Buning uchun so 'z oxiriga - i egalik qo'shimchasini qo'shib ko'ramiz ... kabi.

Izohli yozuvda iloji boricha so'zlarni bo'g'inlab aytish, tushunarli qilib talaffuz qilish o'quvchilar tomonidan matnning o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

TEKSHIRUV DIKTANT

Katta mavzular o'tib bo'lingach, shuningdek, chorak oxirida tekshiruv diktant o'tkaziladi.

Tekshiruv diktantgacha grammatik, orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi. Tekshiruv diktant asosan o'rganilgan qoidalarning qanchalik ozlashtirilganligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. O'tilgan orfografik qoidalar yodga olinadi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktant-ning ta'limiy ahamiyati katta.

Matn mazmuni o'quvchilar saviyasiga mos, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lishi lozim. Agar matnda ma'nosi qiyin so'zlar, so'z birkmalari, jumlar bo'lsa, almashti-rish kerak, ayrimlarini esa diktant yozishni boshlamasdan awal tushuntirib, doskaga yozib ko'rsatsa ham bo'ladi.

Matnda o'tilayotgan yoki takrorlanayotgan qoidaga mos so'zlar, so'z birkmalari, gaplar yetarli bo'lishi lozim.

Diktant matnidagi so'zlar soni quyidagicha bo'lishi mumkin.

SINFLAR	V	VI	VII	VIII	IX
O'quv yili boshida	90	100	130	140	150
O'quv yili oxirida	100	120	140	160	180

Nazorai diktantlarini tekshirish o`quvchilar tomonidan yo`l qo`yilgan xatolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan choralarini ko'rish demakdir. Har qanday yozma ish shu jumladan nazorat diktanti ham tekshirilib xatolar tasnif qilinishi, bu xatolarning sababi aniqlanishi zarur.

Oquvchilarning yozma nutqini shakllantirish va fikr doirasini kengaytirish uchun bayon ayniqsa ijodiy bayonlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Maktab amaliyotida yozma ishning bu turidan ko`p foydalaniladi.

Bayonlar badiiy asarni yoki berilgan matnni yozma ravishda qayta hikoyalash xarakteridagi yozma ish turidir. Bayonlardagi matnni qayta hikoyalash to'liq bayon qisqartirilgan bayon kengaytirilgan bayon tarzida o'tkaziladi. Har uchala xil bayonning ham maqsadi bog'lanishli nutq o'stirishdir. Ayniqsa, kengaytirilgan bayonning o'quvchilarni mustaqil fikrlash mahsuli bo'lgan inshoga tayyorlashdagi ahamiyati katta. U o'quvchining tafakkur doirasini kengaytiradi, bayon uslubini takomillashtiradi.

Sinf	Yozma ish hajmi Lug'at diktanti	Nazorat diktanti	Bayon
V	20-25 so'z	100- 110so'z	100- 150so'z
VI	25 - 30 so'z	110- 120so'z	150 -200 so'z
VII	30-35 so'z	120- 130so'z	250 - 300 so'z
VIII	35-40 so'z	150- 170 so 'z	300 - 350 so'z
IX	40-45so'z	170 -200 so 'z	350-400so'z

Yozma ish matnidagi so'zlarning soni sinf o'quvchilarining umumiy o'zlashtirish darajasiga qarab orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

1.2. Yozma ishlardagi xatolar tasnifi va belgilanishi

Hozirgi kunda ona tili (o'zbek tili) darslanda xatolarni aniqlashning quyidagi usullari faollashgani ma'quldir:

- xatolarni miqdori va sifati jihatidan aniqlash;
- xatolarning miqdori xususiyligini aniqlash:
- xatolarni o'tilgan yoki o'tilmagan qoidaiarga oidligi jihatidan aniqlash.

Xatolarni miqdor jihatidan aniqlash o'quvchilarning savodxonlik darajasini belgilash uchun qulay bo'lib, bilimni oshirishda amaliy ahamiyatga ega emas. O'quvchilar bilimni oshirish va mustahkamlash, malakasini kengaytirishda esa xatolarning sifatiga e'tabor berish muhim ilmiy-pedagogik va

amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda xatolar quyidagicha guruhlanadi:

qo`pol va qo`pol bo`lmagan xatolar

bir xil yoki har hil bo`lgan hatolar

takroriy yoki tasodifiy xatolar

o`tilgan mavzuga doir yoki tegishli bo`lmagan xatolar

Qo'pol (jiddiy) va qo'pol bo'lmagan (juz'iy) xatolar quyidagi tamoyillar asosida belgilanadi:

Qo`pol (jiddiy) xatolar:

- dastur hajmi va talab darajasidagi ona tili hodisalarini yaxshi

o'zlashtirmaslik, har bir sinf uchun mo'ljallangan va o'tilgan orfografik.

punktuatsion qoidalarni puxta bilmaslik. Ulardan yozma ishlarda to'g'ri foydalana olmaslik:

- sodir bo'lgan xato tufayli so'z ma'nosi va gap mazrnunining jiddiy

o'zgarishi hamda farqlanishi (masalan. qattiq o'rnida qatiq. davvo o'rnida da 'vo. sur 'at o'rnida surat yozish kabi holatlar);

- juft so'zlarni yozishda, satrdan satrga ko'chinshda defis qo'ymaslik,

shuningdek. defis o'rnida tire ishlatish va aksincha;

- ko'ngil. tongi, o'zingiz kabi so'zlarda ng harfiy birikmani ajratib

ko'chirish:

- muayyan gapga xos tinish belgilarini qo'llamaslik yoki noo'rin ishlatish

(masalan. gap oxirida qo'yilishi shart bo'lgan nuqta, so'roq, undov, ko'p nuqta, nuqtali vergul kabilarni tushirib qoldirish):

- so'z shakllarini qorishtirish, almashtirib qo'llash, masalan, yasovchi

qo'shimchalarm noto'g'ri ishlatish: berosita - bamosita; beobro' - baobro'; sinfdosh - hamsinf; hamqishloq - qishloqdosh va sh.k.

Oo'pol bo'lmagan xatolar:

- dastur doirasidan tashqari va eslatmalarda berilgan qoidalarni bilmaslik,

yozma ishlarda ularga amal qilmaslik;

- sheva xatolari (ona o'rnida oyi, aya, momo: chaqimchi o'rnidachaqimboz; kiyik o'rnida kiyikcha mol bozor o'rnida hay von bozor kabi qo'llashlar);

-bir tinish belgisi o'mida ikkinchisini almashtirib qo'llash yoki qo'sh tinish belgilardan birortasini tushirib qoldirish (masalan. qavslar yoki qo'shtir-noqlardan bir elementini tushirib qoldirish kabi);

- ba'zi joy nomlari, shaxs otlari yoki personajlar ismini nuqsonli yozish (Hamrobibi - Hamrobuvi, Shchedrin - Shedrin):

- tinish belgilarining birgalikda ishlatilishidagi tartibning buzilishi yoki

bittasining uishib qolishi: ?! shaklda emas. !? shaklda qo'llash; !... shaklda emas, ??? shaklda qo'llash kabi;

- sostavli atoqli atamalarni yozishda bosh harflarni nuqsonli ishlatish: Xalqlar do'stligi saroyi - Xalqlar Do'stligi Saroyi; Yangi Urganch - yangi Urganch kabi:

- yarim qavsdan so'ng nuqta ishlatish yoki undan keying! so'zni (airdosh otni) bosh harf bilan yozish;

- ba'zi so'zlarni ikki xil ishlatish: oliy qimmat - olihimmat: hamma vaqt

- hammavaqt; obi havo - ob-havo.

Bir xil va bar xil tipdagi xatolar:

- muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion, uslubiy qoida bilan bog'liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo'ladi.

Masalan, o'quvchi besh o'rinda h o'rnida bir so'zda x yozgan bo'lsa, hammasi bitta orfografik xato hisoblanadi;

- agar o'quvchi kirish so'zlarning yozilishida oltita punktuatsion xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, hammasi bitta xato hisoblanadi:

- agar o'quvchi vergulning kirish so'zlarda, uyushiq bo'laklarda va bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ishlatilish qoidalarini bilmasa, bulaming har bin alohida-alohida xato sanaladi:

- agar o'quvchi yozma ishda qaratqich belgisini uch o'rinda noto'g'ri qo'llagan bo'lsa, bitta uslub xatosi sanaladi.

Takroriy va tasodifiy xatolar:

- tushunmoq qutulmoq, turg'unlik, sukunat kabi so'zlar barcha o'rinlarda to'g'ri yozilib, bir o'rinda tushinmoq tarzida ishlatilsa, tasodifiy xato sanaladi; agar qutulmoq so'zi besh o'rinda qutilmoq tarzida qo'llansa, takroriy xato hisoblanadi;

- 1441 o'rnida 1941 yozib qo'yilsa, tasodifiy xato hisoblanadi.

Takroriy va tasodifiy xatolar yozma ishda tuzatiladi, lekin jiddiy xato hisoblanmaydi. ya'ni baholash mezonini va me'yoriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi.

Yozma ishlarni baholashda hisobga olinmaydigan xatolar:

maktab grammatikasi doirasiga kirmagan orfografik, punktuatsion nuqsonlar;

- hali o'rganilmagan qoidalarga oid nuqsonlar;
- ilmiy-nazariy jihatdan maxsus tekshirilmagan va yozilishi joriy etilmagan nuqsonlar;
- individual (avtor) nutqqa xos punktuatsion holatlarning berilishidagi nuqsonlar.

Yozmu ishda xatolarning belgilanishi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yozma ishni tekshirishda xatolar tagiga chizish hamda daftar hoshiyas'iga belgilar chiqarish yo'li bilan ko'rsatiladi va hisobga olinadi.

Xatolarni ko'rsatish uchun:

- imlo xatosi ostiga ikki chiziq (=)
- tinish belgilardagi xato ostiga bir chiziq (-)
- uslubiy xato ostiga to'lqinli chiziq (~) chiziladi

Daftar hoshiyasiga esa quyidagi shartli belgilar qo'yiladi:"

z (shtrix) - imlo xatosini bildiradi;

V (ve) - tinish belgisidagi xatoni bildiradi;

W (dubl ve) — uslubiy xatoni bildiradi;

Z (zet) - abzasni, ba'zan matndagi behuda bo'sh qoldinlgan yoki noo'rin band qilingan satrlarni bildiradi;

- yozma ishni tekshirishda chiroyli jumla, juda o'rnida keltirilgan dalil ro'parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida undov belgisi (!) qo'yish bilan tahsin yoki maqto'vni; no'noq, tushunarsiz, noto'g'ri jumlar, noo'rin dalillar ro'parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida so'roq belgisi (?) qo'yish bilan e'tiroz yoki tushunarsizlikni bildirish mumkin.

Ish tekshirib bo'linganidan keyin xatolar tasniflanib, ularning soni, masalan, imloviy - 2 ta, ishoraviy - 3 ta, uslubiy - 1 ta kabi ko'rsatilishi mumkin.

1.3. Baholash mezonlari

Diktantni baholashda quyidagi mezon belgilanadi:

"5" baho:

- mutlaqo xatosiz yozilgan bo'lsa;
- qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo'lsa.

"4" baho:

ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo'lsa; xatolar nisbati o'zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to'rttadan oshmasligi kerak.

"3" baho:

- to'rtta imlo va to'rtta ishorat xatosi bo'lsa; xatolar nisbati 3 ta imlo, 5 ta ishorat xatosi kabi bo'lishi ham mumkin.

"2" baho:

- 7 tagacha imlo va 7 ta ishorat xatosi bo'lsa.

Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, "1" baho qo'yiladi.

Diktantni baholashda imloviy xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi. Agar diktantdagi tuzatishlar soni 5 tadan ortiq bo'lsa, baho bir ballga pasayadi. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo'lsa, "5" baho qo'yilmaydi.

Bayonni baholashda quyidagi mezon belgilanadi: "5" baho:

- mavzu rejaga muvofiq bo'lsa;
- asar voqealari to'g'ri bayon qilingan bo'lsa;
- bayonda mantiqiy izchillikka rioya qilingan bo'lsa;
- so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lsa;
- mazmun va ifodada nuqson bo'lmasa;
- savodxonlikda qo'.pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo'lsa, uslubiy xato bo'lmasa.

"4" baho:

- mavzu reja asosida yozilib, to'liq yoritilgan, lekin kichik nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa:

- fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo'lsa;
- so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada

2-3 nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa;

- savodxonlikda 2 ta imlo, 1 ta ishorat va 1 ta uslubiy xato bo'lsa, umumiy xatolar soni 4 tadan oshmasa.

"3" baho:

- mavzu to'liq yoritilmagan bo'lsa; mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa;
- aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa;
- savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 4 tagacha uslubiy xato bo'lsa

"2" baho:

- asar voqeasi ko'p buzilgan bo'lsa;
- ish rejaga mos bo'lmasa. fikr bayoni va qurilishida buzilishlar bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa;
- so'z boyligi juda kambag'al bo'lsa;
- mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat, 7 tagacha uslubiy xato bo'lsa.

Me'yorlash "2" baho uchun belgilangan mezondan oshsa, bunday bayonga

"1" baho qo'yiladi.

Bayonga 2 ta baho qo'yiladi: 1 - mazmuniga, 2 - savodxonligiga

II БОБ. ОНА ТИЛИ ДАРSLARINING TURLARI VA QURILISHI

2.1. Orfografik mashqlar

Orfografik malaka ongli nutk faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzok vakt davomida maksadga karatilgan mashklar bajarib boriladi. Orfografik mashklar orfografik ziyraklik kunikmasini shakllantirishga, tegishli urinda koidani tadbik kilishga, mashklarning kism-lari urtasidagi borlanishni belgilash, ularni umumik va yagona faoliyat sistemasiga kiritishga, o`quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o`zlashtiriladi. Metodikada orfografik mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; ko`chirib yozuv: 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog`lanishi, ko`chirib yozuv va diktantda o`quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko`chirib yozuvda ko`ruv va qo`l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko`chirib yozuv ko`rib idrok qilingan so`z, gap va matnni yozma shaklda berishdir. Boshlang`ich sinflarda xusnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo`l qo`ymas, tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o`rnini almashtirmay, tinish belgilarini to`g`ri qo`llab ko`chirib yozuv ko`nikmasi

shakllantirilishi kerak. O`quvchilarda bu ko`nikmani hosil qilish maqsadida o`qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko`chirib yozuvni izchillik bilan o`rgatib boradi.

O`quvchilarda ko`chirib yozuv ko`nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko`chirib yozishdan oldin ko`chirib yozadiganingni yaxlit o`qib chiq.
2. Har bir gapdagi so`zlarni bo`g`inlarga ajrat va ichda bo`g`inlab ayt.
3. Ko`chirib yozganingni asliga solishtir va xatolaringni to`g`rila.

Ko`chirib yozuv uchun so`z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi.

O`qituvchining qo`ygan maqsadiga bog`liq holda ko`chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko`riladi; bunda imlosi qiyin so`zlarni izohlab o`qish, so`zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o`rganilgan qoida asosida yoziladigan so`zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko`nikma qaydarajada shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko`chirib yozuv o`tkaziladi.

Ko`chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so`z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri orfografik

malakani shakllantirishga nazariy asos bo`ladigan grammatik, fonetik bilimlarni aktivlashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o`stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misollar:

Ko`chirish. O`zakdosh so`zlarni aniqlab, o`zakni ajratish.

Tushirib qoldirilgan qo`shimchalarni qo`yib ko`chirish, qanday qo`shimcha ekanini aytish; yozilishini tushuntirish.

Matn mazmuniga mos so`zni qavs ichida berilgan so`zlardan topib qo`yib ko`chirish. Shu so`z qaysi so`z turkumiga oid ekanini, uning yoziishini tushuntirish.

Aralash berilgan so`zlardan gap tuzi shva yozish.

Tartibsiz berilgan gaplardan bog`lanishli matn tuzish.

Tanlab ko`chirish. (Berilgan gaplardan yoki matndanmuayyan bir so`z turkumini; ot va fe'ldan yo ot va ot, sifat va otdan tuzilgan so`z birikmalarini ko`chirish.)

Diktant eshitib idrok qilingan so`z, gap, matnni yozishdir. O`quvichlarning og`zaki yozma nutqini o`stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O`quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o`zlashtirganliklariga bog`liq bo`ladi.

Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog`liq bo`ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o`z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Boshlang`ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga rioya qilish zarur:

1. Matnning monologik nutq shaklida bo`lishi. Unda ko`chirma gaplar, undalmali, kirish so`li, ajratilgan bo`lakli gaplar qo`shma gap bo`lmasligi lozim.

2. Matn hajmi 1-4- sinf o`quvchilarining o`qish sur'tiga asoslangan bo`lishi.

3. Matn mazmuni bolalar hayoti bilan bog`liq bo`lishi.

4. O`quvchilarga u yoki bu haqda bilim berishi.

5. Tanlangan matn g`oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo`lishi, bolalar hissiyotiga ta'sir o`tkazishi.

6. Matn tarbiyalovchi xarakterda bo`lishi.

7. Matnda o`rganilayotgan hodisa kamida 5-6 marta uchrashi.

Diktantlar maqsadiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

1. Ta'limiy diktantlar – bilim berishga yo`naltirilgan diktantlar.

2. Tekshiruv diktant – o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta'limiy diktantlarni o`tkazish vaqtini, o`rnini, turini o`qituvchining o`zi belgilaydi. Ta'limiy diktantlar uchun darsnin ma'lum bir qismi (5-10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o`quvchilarining bilimi mustahkamlash maqsadida o`tkaziladi. Ta'limiy diktantda o`qituvchi o`quvchilarga o`rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, so`zlarni to`g`ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beriladi. Har qanday yo`l bilan xatoning oldini olish chorasi ko`riladi. Masalan, 1-sinfda a va o unlilari o`rganilayotgan darsda bo`g`in-tovush, tovush-harf tahlili o`tkaziladi. Baho, bahor so`zlarining birinchi bo`g`inida a harfi yozilishini o`quvchilar bilib olgach, o`quvchilardan biri shu so`z doskaga yozdiriladi. So`ng so`z o`chirib tashlanadi. Undan keyin aytib turib yozdiriladi.

Ta'limiy diktantlar tashkil eti shva bajarilish usuliga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

Ta'kidiy diktant.

O`z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.

Izohli diktant.

Saylanma diktant

Erkin diktant

Rasm diktant

Lug`at diktant

Ijodiy diktant

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o`zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o`rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o`quvchilar qay darajada o`zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo`lim o`rganilgandan so`ng yoki chorak oxirida o`tkaziladi. Tekshiruv diktanti o`quv yili davomida 5-6 marta o`tkaziladi. Diktantning bu turida yo`l qo`yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Orfografik mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Izohli diktant. Izohli diktant o`quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o`tkaziladi. O`quvchi, odatda, o`qituvchining ko`satmasi bilan ma'lum so`zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So`zning yozilishini bo`g`in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidagi tatbiq etadi. Masalan, qitob – bilim manbai, Kitob: Ki- tob. Ikki bo`g`in. Birinchi bo`g`inida k,i; ikkinchi bo`g`inida t,o,b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymtz. Buning uchun so`z

oxiriga i tovushini qo`shamiz va aytamiz.: kitobi. B tovushi yozilar ekan kabi izohlanadi.

Bu diktantda o`quvchilar qoidalarga oid so`zlarning tagiga chizadilar.

Ta'kidiy diktant. Bu diktantdan qoidani tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi, Matni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o`quvchilar so`zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O`z diktant yoki yoddan yozuvda o`rganilgan orfografik qoida asosida yoziladigan so`zlar bo`lgan matni o`quvchilar o`zlari o`qib yodlaydilar (ko`rib idrok qiladilar) yoki o`qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar).

Saylanma diktantda o`quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o`qituvchining topshirig`iga mos qisminigina) o`rganilgan qoida asosida yoziladigan so`zlarni, so`z birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so`zlarnigina yozish (1- sinf), qaratqich kelishigidagi so`zni u bog`langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so`zni u bog`langan fe'l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o`quvchilarda orfografik ziyraklikni o`stiradi.

Erkin diktant. Bu diktantda ularga mazmuni buzmay, gap tuzilishini uzgartirish, bir suzni unga yakin ma'noli so`z bilan almashtirish erkinligi

beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O`qituvchi avval matnни bir marta ifodali o`qib beradi. Matn mazmuni yuzasidan suhbat o`tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o`qib beriladi, o`quvchilar uning mazmuni yozadilar.

Erkin diktant imlo koidalarini mustaxkamlashga xizmat kilishi bilan birga, ukuvchilar nutkini ustiradi, fikrlash kobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki uzini kursagib utkaziladi: predmet rasmi kursatiladi, ukuvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul kuyadilar, ish shunday davom etadi. (Birinchi suz bosh xarf bilan, k,olganlari koidaga ko`ra yozilishi eslatiladi.) Rasm diktantda urganilgan koidani, ayniksa, uquv yili davomida urganiladigan imlosi kiyin suzlarni to`g`ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni ukuvchilar k.anday uzlashtirganliklarini sinash maksadi kuzda tutiladi.

Tekshiruv yoki kontrol diktant yakinda urganilgan va ilgari urganilib, mashklar bilan mustaqkamlangan koidalarni ukuvchilar kaydarajada uzlashtirganligini aniklash maksadida utkaziladi. Avval matn bir marta ukib beriladi, keyin gaplar, agar gap 5-6 suzli bulsa, 2-3 sqz diktovka kilib yozdiriladi.

Uqituvchi darsning maksadi va malakai shakllantirish ustida ishlash boskichini qisobga olgan qolda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Bayon uquvchilarning luratini boyitish, boglanishli nutkini ustirishga karatilgan orfografik mashk turlaridan biri qisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni qrganishning yakunlovchi boskichida, ukuvchilar koidalarni bilib olib, uni tadbik kilishga urganganlaridan sung utkaziladi. Bayon yozganda urganilgan orfografik koidalarni to`tri tadbik etish ularni ongli uzlashtirilganini ko`rsatadi.

2.2. Ona tili darslarining turlari va qurilishi

Dars turlari uning didaktik maqsadiga kura bslgilanadi, chunonchn: yangi materialni o`rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning kanchalnk o`zlashtirilganini hisobga olish (kontrol) darsi kabilarga ajratiladi. Har bir dars turi muayyan kurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik mastsadi, tur;1 va kurilishi urtasi ma'lum boglanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maksadi o`rgniladigan mavzuga va bu darsning darslar siste-masida tutgan urniga qarab belgilanadi. Uqituvchi dasturda mavzuga ajratilgan soatlar sonini va urganiladigan materialning xususisiyatlarini hisobga olgan xolda, dars turini tanlab, qurilishini belgilaydi.

Dars kurulishida qat'iy andaza bo`lishi mumkin emas. Biroq darsda uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustaxkamlash, uyga vazifa berish boskichlariga rioya qilish tajribada uzini oklayapti. Shunga qaramay, bularga ijodiy yondashish, darsnng maqsadi va foydalaniladigan metodik usullarga asoslangan holda, darsni kaysi boskich (yangi materialni tushuntirish, mustaqil ishni bajartirish yoki Uy vazifasini tekshirish) dan boshlashni uqituvchining uzi xal kilib, bosqichlar orasidagi oraeidagi ichki boglanish, har bir boskichdagi ishlarning mazmunini anik, belgilab olish katta axamiyatga ega ekanini unutmashligi kerak. Darsning barcha boskichlarini bir jarayonga birlashtirish ukituvchidan mohirlik talab etadi.

Umumlashtiruvchi dars grammatikadan maxsus dars turi hisoblanadn. Bu darsda biror mavzu yoki bulimni urganish jarayonida olingnp bilimlar sistmalashtiriladi. Bu dars ilgarigi darslarda urganilgan ayrim nazariy materiallarni takrorlab bayon k,ilish darsiga aylanmasligi uchun urganilganlarni uzaro taqqoslashni talab kiladigan ish turlaridan foydalaniladi.

Umumlashtiruvchi darslar qurilishiga kura xilma-xil bulib, tajribaning kursatishicha, quyidagi varianti ma'qul hisoblanadi: 1.O`rganilgan grammatik tushunchaning mavjud belgilari xakidagi bilimlarni tatbik. qilishga qaratilgan

mashqlarni ishlash. 2. Bilimlarni umumlashtirish va tekshirish. 3. Mustaqil ijodiy ish.

Umumlashtiruvchi dars namunasi

Darsning mavzusi. Soʻz maʼnosi boʻlimi yuzidan umumlashtiruvchi takrorlash darsi.

Darsning maqsadi . Oʻquvchilarning shaxs , narsa, harakat va belgi bildirgan soʻzlar haqidagi bilim larini aniqlash va mustahkamlash shu soʻzlardan nutqda toʻgʻri va aniq foydalanishga oʻrgatish, husnixat bilan yozish koʻnikmalarini shakllantirish

Dars turi. Umumlashtiruvchi- takrorlash darsi.

Dars jihozi. Diktant uchun matn, kartochkalar, testlar, rangli rasmlar

Modulning didaktik maqsadi. Oʻquvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda mustaqil ishlash, soʻzlarni maʼnosiga koʻra farqlash va guruhlash koʻnikmalarini mustahkamlash , soʻzlarning toʻgʻri talaffuzi va imlosini oʻzlashtirishlarini taʼminlash .

Oʻquvchilar dars yakunida quyidagilarni bilishi kerak:

-soʻzlarga soʻroq bera olishi;

-matn va gapdan soʻroqlar yordamida shaxs, narsa, belgi va

harakat bildirgan soʻzlarni topa olishi;

-kim? , nima?, qanday?, nima qildi? So`roqlariga mos so`zlar topa olishi va ularning nimani bildirayotganini izohlay bilishi;

-mashq shartlari to`g`ri o`qib, uni tushuntirib bera olishi;

-gap va matndagi ayrim so`zlarning ma'nosini bilib olishi va izohlay bilishi;

- chiroyli ,sezgir so`zlariga ma'nodosh, kata, keng so`zlariga qarama-qarshi ma'noli so`zlar topa olishi;

- qanot kabi ko`p ma'noli so`zining o`z va ko`chma ma'nolarini taqqoslashni va ularni farqlashni bilishi;

-bosh va kichik harflar bilan yoziladigan so`zlarni bilishi;

- imloviy xatolarsiz ko`chirib va eshitib yozishni hamda grafik xatolarsiz yozishni.

2.3. Mavzuga doir test materiallaridan namunalalar

1. «Ona: tili» fani bo`yicha dastur va darsliklardagi uzgarishlar nimalarda kuzga tashlanadi?

A) Koidalarning berilmaganligi, mashk; turlarining kupligida, tilga oid xamma xolatlarining birday qamrab olinganida;

V) «Ona tili kursining ikki qismdan iborat qilib belgilanganligida»

S) O`quvchining ta'lim jarayonini sub'ekt sifatida faollashtiruvchi, o`qituvchining faoliyatini boshqaruvchi sifatida belgilanishda darslikning ukuvchi va o`qituvchi faoliyatlarini bog`lovchi vosita sifatida tavsiya etilishida;

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

2. Yangi dastur va darsliklarda mustaqil so`z turkumlari nechta qilib belgilangan?

A) 6 ta

V) 7 ta

S) 4 ta

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

3. O`quvchilar bilimni reyting usulida baxolash nimaning tarkibiy qismi xisoblanadi?

A) Tayanch o`quv rejaning;

V) O`quv ishlarini;

S) Umumiy o`rta ta'lim Davlat standartlarining;

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

4. 9-sinfda tekshiruv diktant iva bayoni necha so`zdan iborat bo`lishi lozim?

A) Diktant- 120- 140; bayon -250-300;

V) Diktan , - 140 – 160 bayon - 300 - 350;

S) Diktat- 150- 130; bayon -350- 400;

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

5. O`zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

A) X asrgacha, XI -XIII asrlar; XIV asrning ykkinchi yarmi, XV asr;

V) XI -XIII asrlar; XIV asrning ikkinchi yarmi, XV asr, XIX asr; XX asr;

S) VII-X asr; X — XI — asr, XX asr;

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

6. Xozirgi o`zbek alabiy tili davri qaysi javobda to`g`ri

ko`rsatilgan ?

A) XI -XIV asrlar;

V) XIV asrning ikkinchi yarmidan XX asrgacha;

S) XX asr va keyingi davr;

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

7. Eski o`zbek adabiy tili qachon shakllangan?

A) XI -XII asr

V) VII-X asr;

S) XIV asrning ikkinchi yarmida;

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

8. Qiyosiy tilshunoslikka asos solgan kim?

A) Yakob Grimm

V) E.D.Polivanov:

S) M.qoshg`ariy

D) Barcha variantlar noto`g`ri.

XULOSA

Shunday qilib, ona tilidan ta'lim mazmuni o`quv topshiriqlarida ham o`z ifodasini topadi.

O`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatini faollantirishda ularning imkoniyatlari benihoya katta.

O`quv topshiriqlarining sharti o`quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim vositassidir. Topshiriq sharti o`quvchilarni qiziqtirishga, uni bajarish jarayonida faoliyat faol bo`ladi.

Topshiriqning materiali faollikni qo`zg`atuvchi yana bir elementidir. O`quv materialining tematik rang-barangligi, o`quvchilarning til muhiti va o`lka talablariga muvofiq tushishi ularning faolligini oshirishga katta ta'sir ko`rsatadi.

Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki nostandart topshiriqlardan ham unumli foydalanishga ko`proq zarurat sezilmoqda. Nostandart topshiriqlar o`quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bo`lgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni ta'minlashning muhim omilidir.

Dars jarayonida olib boriladigan diktantning qiziqarli va mavzuga oid bo`lishi o`quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi.

Ona tili darslari mazmunini takomillashtirish va uni o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini faollashtiradigan muhim manbaga aylantirish choralaridan yana biri fan ichidagi fan va fanlararo bog`lanish imkoniyatlarini kengroq ishga solishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida.- T.:O`zbekiston. 1995.-269 b.
2. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.:Sharq. 1997.- 64 b.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo`lida. -T.:O`zbekiston. 1998.- 480 b.
4. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar).-T.:Sharq. 1998.- 184 b.
5. A.Azamov "O`quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" T., 2004 y.
6. Q.Xusanboeva "Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o`rgatish asoslari" T., 2003 y.
7. A. G`ulomov va b. "Ona tili ta'lim mazmuni" T., 1995 y.
8. G`.Yo`ldashev "O`qituvchi" kitobi 7-s. T., 1997 y.
9. G`.Yo`ldashev "O`qituvchi" kitobi 6-s. T., 2001 y.
10. J.Yo`ldashev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., 2003 y.
11. H.Sultonova "XXI asr muallimasi" T., 2002 y
12. K. Qosimova. «Ona tili o`qitish metodikasi», T., 1985 y.
13. T. Ashrapova. «Ona tili o`qitish metodikasi» T., 1986 y.
14. "Ta'lim taraqqiyoti" (maxsus son № 1) T., 1999 y.
15. "Til va adabiyot ta'limi" (1995-2006)
16. "Ta'lim taraqqiyoti" № 4, 5 T., 2000 y.

17. “Xalq ta'limi” (1995-2006)
18. “Ma'rifat” gazetasi (1995-2006)
19. “Ta'lim texnologiyasi” jurnal (2005-2006)
20. “Ona tili” darsliklari (1995-2006)
21. A.Mirzaahmedov. «O`quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar», Til va adabiyot ta'limi jurnali., 1996 y. 3-son.
22. N.Alavitdinova. «Ona tilim – jonu dilim» Boshlang`ich ta'lim jurnali., 2001y, 2-son.
23. M.Hamidova. «Til barcha fanlar kalitidir», Boshlang`ich ta'lim jurnali., 2003y, 3-son.
24. Sh.Sariev. «Nutq sofligi – so`z boyligi», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 2001 y, 1-son.
25. M.Mamatov. «Bilim va sezgirlik», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
26. Boshlang`ich sinflarning ona tili darsliklari va boshqalar.
27. J.G`.Yo`ldoshev, S.A. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari», T., O`qituvchi, 2004 y.
28. J.G`. Yo`ldoshev. «Yangi texnologiyaning yo`nalishlari, muammolari, echimlari», Xalq ta'limi jurnali., 1999 y, 4-son.

